



RIBO – QADIM O‘TMISHGA NAZAR

Nodirbek Nishonov

Toshkent islom instituti talabasi

E-mail: Nodirbeknishono@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur mo‘jazgina maqolada sudxo‘rlikning qadimgi xalqlar tarixidagi o‘tmishiga nazar tashlanadi. Bunda o‘sha davrlardagi jamiyatlarda sudxo‘rlikka nisbatan munosabatlari qisqacha keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ribo, riboxo‘rlik, sudxo‘rlik, foyda, qo‘lma-qo‘l, tengma-teng.

Ribo lug‘atda “ko‘paymoq, ziyoda bo‘lmoq” degan ma’nolarni bildiradi. Istilohiy ta’rifi esa: Ribo – molni molga almashtirishda evazsiz ortiqcha mol olishga aytiladi^{1,2}. Biz yashab turgan jamiyatda ribo sudxo‘rlik, bu ish bilan shug‘ullanuvchi shaxsni esa sudxo‘r (ba’zan riboxo‘r ham) deyiladi.

Moliyaviy zulmga qarshi kurash ham jamiyatning boshqa illatlari qatori har davrning muhim muammolaridan hisoblanib kelgan. Sudxo‘rlik jamiyatning rivojlanishga to‘sqinlik qiladigan eng katta omillardan biridir. Unga yo‘l ochib bergan jamiyat o‘z oyog‘iga bolta urgan hisoblanadi. Sudxo‘rlik jamiyat taraqqiyoti uchun juda ham xatarli bo‘lgani sababidan ham uni o‘rganish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davlatlar sudxo‘rlik jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir qilgani uchun unga qarshi jiddiy kurashgan, ba’zilari esa ribo bilan muomala qilishni uzul-kesil man qilgan. Ribo bilan kurashish qadimgi asrlar iqtisodiyotida ham muhim masalalardan hisoblanib kelgan³.

¹ Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. Hadis va Hayot. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – J. 11. – B. 133.

² yoki qarzini qaytarayotgan qarzdordan haqdorning evazsiz ortiqcha haq talab qilib olishiga ham ribo deyiladi.

³ <https://almuslimalmuaser.org/>. Doktor Mahmud Orif Vahba. نظريات الفائدة (الربا) في الفكر الاقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). 01.09.1980.



Doktor Mahmud Orif Vahba 1980-yil “Al-muslim al-muosir” jurnalining 23-sonida⁴ “Iqtisod fikrida foyda nazariyalari” nomli maqolasida qadimgi xalqlar davlatchiligi urf yoki qonunchiligida mavjud bo`lgan riboviy muomala ko`rinishlarini keltirib o`tgan. Jumladan:

Misrda fir'avnlr davrida

Fir'avnlr davridagi Misrda qarz va tijorat muomalalaridagi foydaning bahosi 100% ga yetgan edi. Hukumatning o`zi ham qarz masalalarida ribo bilan amaliy shug`ullanar, hatto ibodatxonadagi kohinlar ham riboga sho`ng`ib ketgan edi.

Yunon tarixchisi Teodor⁵ fir'avn Buxuris⁶ joriy qilgan qonun haqida aytadi: “Riboning muddati qancha cho`zilsada dasmoyadan o`tib ketmasligi kerak. Bu qadimgi Misrda riboning keng tarqalganiga dalolat qiladi.”

Misrda yashovchilar qaysi millat bo`lishlaridan qat`iy nazar ribo bilan shug`ullanishni mol davlat to`plash uchun kasb qilib olgan edi. Misrdagi yahudiylar Tavrot ta`limiga zid ravishda ellinizm⁷ qonunlariga muvfiq tarozida to`g`ri o`lchamas va o`zaro ribo bilan muomala qilar edilar.⁸

Bobil madaniyatida

Bobil qadimgi sharq davlatlari ichida tijoratda muhim o`rin tutgan katta davlat bo`lgan. Ribo tijorat bilan yonma-yon yurdigan asosiy omillardan hisoblangan. Dindor kishilar ham ribo evaziga qarz berishar edi.

⁴ Doktor Mahmud Orif Vahba. الإقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). Al-muslim al-muosir jurnali, 23 son. 01.09.1980. <https://almuslimalmuaser.org/>.

⁵ Teodor (Miloddan avvalgi 340 - Miloddan avvalgi 250, Yunoniston) – yunon tarixchisi.

⁶ Misr fir'avnlrining yigirma to`rtinchi sulola vakillaridan biri..

⁷ Eramizdan oldingi III-I asrlarda yunon va Misr madaniyatlarining qo`shilib rivojlangan davri.

⁸ <https://almuslimalmuaser.org/>. Doktor Mahmud Orif Vahba. نظريات الفائدة (الربا) في الفكر الاقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). 01.09.1980.



Taxtga Hammurapi⁹ kelgach birinchi qilgan ishi riboda muammo keltirib chiqarayotgan qonun-qoidalarni tartibga solish bo'lgan. Unda riboning foydasi qanday vaziyat bo'lsada olgan qarz barobaridan ziyoda bo'lmasligi kerak. Hammurapiyning qonuni foydani ko'tarishda haddidan oshgan ibodatxona kishilariga qaratilgan bo'lib, ular har oyda olishgan foydani yillik 20% ga tushirdi.¹⁰

Qadimgi Hindiston madaniyatida

Qadimgi Hindiston madaniyatida ribo muomalasini tushinish uchun qadimgi hind mintaqasida hind jamiyatida qadimdan yuzaga kelgan tabaqalanishni bilish kerak. U yerning amaldagi qonunlari brahman¹¹ va kshatriy¹² tabaqalariga tijorat, moliyaviy ishlar va ribo evaziga qarz berishni ta'qiqlaydi. Hatto ikki tabaqa a'zolaridan biri arzon pulga ozroq yer sotib olsa va uni qimmatga sotsa ham ribo bilan shug'ullangan hisoblanar edi. Vaysh tabaqasi¹³ga tijorat va ribo bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan. Shudra tabaqasi¹⁴ dagilarga boylik to'plashning har qanday yo'li uzul kesil harom qilingan edi.¹⁵

Qadimgi Yunonistonda

Yunonlarda ribo keng tarqalgan bo'lib, qarz beruvchi qarzdor qarzni uzmasa uni qul qilib unga egalik qilar, xohlasa o'ldirishi ham mumkin edi.

Miloddan avvalgi oltinchi asrdagi “Sulun”¹⁶ dasturida ijtimoiy va iqtisodiy holatlarga to'xtalib, riboning xunuk oqibatlarini yaxshi yo'l bilan hal qilishni ko'rsatgan. Qarzdorni qul qilishni harom qilgan, lekin ribaviy foydaning chegarasini belgilagan bo'lsada, ribo muomalasini butkul harom qilinmagan.

⁹ Bobil podshosi (mil. av. 1792—1750). Uning davrida Bobil davlati ravnaq topgan.

¹⁰ Sayyid Muhammad Oshir. Ar-Ribo 'indal-yahud. – Qohira: Dorul ittihadil arabiyya, 1972. – B. 6.

¹¹ Kohinlar tabaqasi.

¹² Jangchilar tabaqasi.

¹³ Dehqon va savdogarlar tabaqasi.

¹⁴ Eng past tabaqa bo'lib, ularning muayyan ishi yo'q, jamiyat ham ularni tan olmaydigan va yuqoridagi uch tabaqaning xizmatida bo'lgan.

¹⁵ <https://almuslimalmuaser.org/>. Doktor Mahmud Orif Vahba. نظريات الفائدة (الربا) في الفكر الإقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). 01.09.1980.

¹⁶ Yunonlarning mashhur yetti faylasuf-hakimlaridan biri *Sulun* (mil.av. 640 yilda tug'ilgan)



Yunon faylasuflari tomonidan ribo amaliyoti keskin tanqid ostiga olingan va qoralangan. Hatto mashhur yunon faylasuflari Platon¹⁷ va Aristotel¹⁸ bundan amaliyotlarni o'z jamoalari ichida man qilganlar.

Qadimgi Rim davrida

Rimliklar ribo muomalasiga oddiy masala sifatida qaragani uchun ularda ribo keng tarqagan, ma'lum va mashhur edi.

Faylasuf Setseron¹⁹ ribo bilan foydalanishni harom deydi va uning fikricha riboning jarimasi qotillik qilganning jarimasi bilan barobar hisoblanadi. Boshqa manbada esa Setseronning ribo konsepsiyasini butunlay inkor etmagani, balki uni oqilona bitimlarda qo'llash mumkinligini ta'kidlagani keltirilgan.²⁰

Seneka (Sinika)²¹ riboning ba'zi ko'rinishlari ma'lum chegara va shartlar asosida mumkin deydi.

Rim davrida sudxo'rlikda belgilanadigan foiz stavkalarining to'rt shakli bo'lgan: yuqori 8-12,5%, Rim uchun standarti 4-12,5%, mahalliy 6-10% va Vizantiya uchun 4-12,5% dan belgilangan.²²

Yunon-rim faylasuflari ribo bilan shug'ullanish pastkashlik va haqoratli faoliyat deb hisoblashgan. Bu ham bo'lsa shak-shubhasiz o'sha davrdagi nosog'lom muhitning kelib chiqishi bilan bog'liq.²³

Yahudiylar manbalarida

¹⁷ Aflotun yoki Platon. Qadimgi yunon faylasufi. (mil. avv. 427-347 yy.) Matematik, yozuvchi va Afinadagi ilk akademiya asoschisi. Ustozi Suqrot, shogirdi Arastu bo'lgan.

¹⁸ Arastu yoki Aristotel. Qadimgi yunon faylasufi. (mil. avv. 384-332 yy.) Aleksandr Makedonskiyning ustoz bo'lgan.

¹⁹ Sitseron Mark Tulliy (m.a. 106-43 yy.) taniqli davlat arbobi va mashhur notik bo'lgan.

²⁰ Botirxo'ja Jo'rayev. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2014. – B. 154.

²¹ **SENEKA, Kichik Lutsiy Anney (Miloddan avvalgi (taxminan) 4 yilda tug'ilib, milodning 65 yilida vafot etgan).** Qadimgi Rim shahrida yashab o'tgan faylasuf, shoir va siyosiy arbob, asl vatani Ispaniya edi.

²² Botirxo'ja Jo'rayev. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2014. – B. 152.

²³ Botirxo'ja Jo'rayev. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2014. – B. 151-155.



“Eski ahd” kitobi²⁴da ribo hukmi borasida kelgan hukmlar yahudiylar o‘zaro birlari bilan ribo muomalasini harom qilingani va boshqalar bilan bu muomalani mubohligi bayon qilingan.

Bunga quyidagi hujjatlar keltirilgan: “(Isroil xalqidan bo‘lgan) birodaringga kumushni, nonni yoki har qanday boshqa narsani qarzga berganingizda, foiz talab qilmang. Begona (boshqa xalqdan bo‘lgan)dan riboga qarz bersangiz bo‘ladi. Lekin birodaringga riboga qarz berma. ...” (Tavrot, Qonunlar. 23-bob, 19-20)²⁵

Yahudiylarda bu matnlarda kelgan “birodar” va uning muqobilidagi “begona” so‘zlarini ishlatishdan asosiy maqsad nima ekanini bayoni bor. Eski ahd kitobida birodar so‘zi ikki ma‘noni ehtimol qiladi:

1. Tor ma‘noda bo‘lib, aqiydalarini Muso alayhissalom risolatlari birlashtiradigan yahudiylarning o‘zlariga chegaralanadi. Shuning uchun bu ma‘no qayerda yashashi, qayerda ishlashi, bir davlatda yashaydimi, boshqa davlatda yashaydimi yahudiy dinidagi kishilarga tegishlidir.
2. Keng ma‘noda bo‘lib, Muso alayhissalomga ergashgan yahudiylar va u zot bashorat bergan Iso alayhissalom as‘hoblariga ham dalolat qiladi. Bu ma‘noga qaralsa masihiylar yahudiylarga birodar deb e‘tibor qilinadi. Lekin yahudiylar tor ma‘noni olib “birodar” so‘zini o‘zlarining millatlariga ishlatadilar²⁶.

Yahudiylarda o‘zlaridan boshqaga ribosiz qarz berishi haromligiga ijmo bor.

Tarixdan ma‘lumki yahudiylar asrlardan qaytib kelganlaridan so‘ng o‘zaro ribo bilan muomala qilishga kelishganlar. Bu bilan o‘zlarining sarkash qovmlariga payg‘ambarlarining g‘azabini qo‘zg‘adilar va o‘zlariga la‘nat tilab oldilar. Iso

²⁴ Bibliya (Muqaddas kitob)ning bir qismi. Uning tarkibiga Tavrot va Zabur deb nomlangan kitoblar kiradi.

²⁵ Muqaddas kitob. – Toshkent:“O‘zbekiston bibliya jamiyati. Muqaddas kitobni tarjima qilish intituti”, 2020. – B. 332. (Tavrot, Qonunlar qismi. – B. 30.)

²⁶ Hozir kundagi Bibliya (Muqaddas kitob)ning barcha nashrlarida aynan shu qismida birodar so‘zidan oldin aniqlik kiritib “Isroil xalqidan bo‘lgan” degan jumlaning, begona so‘zidan keyin esa “boshqa xalqdan bo‘lgan” jumlaning kiritish bilan izohlab berilgan. 25-iqtibosga qarang.



alayhissalom risolatlari kelgunigacha ularning o‘zaro ribo muomalasidagi foydasi 1% bo‘lgan²⁷.

Nasroniylar mabalarida

Rim imperiyasi zaiflashib parokandalikka yuz tuta boshlaganda jamiyatni isloh qilish va namuna bo‘lish uchun masihiylik dini yuzaga chiqdi. Masihiylar shari‘atida ribo masalasiga qarashlari quyidagicha bo‘lgan:

1. “Sizdan so‘raganga bering, sizdan qarz olmoqchi bo‘lgandan yuz o‘girmang”. (Matto Injili, 5:42)²⁸

2. “Agar qarzni ulardan (oshig‘i bilan) undirishni ko‘zlab bersang, senga nima uchun xayr yetishi kerak? Gunohkorlar o‘zlari shuni (ortiqchasini) olish uchun gunohkorlarga qarz beradi. Lekin siz dushmanlaringizni seving, ularga yaxshilik qiling va (evazsiz) qarz bering: shunda sizga buyuk mukofot bor. ...” (Luqo Injili, 6:34-35)²⁹

Masihiylar ribo borasida yahudiylarga nisbatan tamoman boshqa yo‘ldan yurishadi. Yahudiylarda riboni o‘zaro harom qilib boshqalar bilan ribo qilishga ruxsat berilsa, masihiylar ta’limotida esa qarz berguvchidan qarzni so‘ramaslik bor.

Masihiylar qarz beruvchi qarzdordan qarzni kechishlikni adolatdan yuqori fazilat deb hisoblashadi. Bunda fazilat qarzdor kambag‘al bo‘lsa, boy bo‘lgunicha kutishi yoki to‘lab berishga imkoniyati bo‘lmasa kechib yuborishida namoyon bo‘ladi. Odillik esa ziyodasini so‘ramasdan bergan qarzini aslini olishi bo‘ladi.

“Cherkov odamlari, ularning boshliqlari va kengashi Iso alayhissalom ta’limotlarida ribo bilan muomala qilishni qat’iy haromligiga ittifoq qilishgan. Hatto hayotga yengil qarab, ko‘p narsalarni ruxsat berish bilan ayblanadigan iyezuit³⁰larning kattalaridan ribo

²⁷ <https://almuslimalmuaser.org/>. Doktor Mahmud Orif Vahba. نظريات الفائدة (الربا) في الفكر الاقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). 01.09.1980.

²⁸ Muqaddas kitob. – Toshkent:“O‘zbekiston bibliya jamiyati. Muqaddas kitobni tarjima qilish intituti”, 2020. – B. 1730. (Matto Injili qismi. – B. 8.)

²⁹ Botirxo‘ja Jo‘rayev. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2014. – B. 155. \ Muqaddas kitob. – Toshkent:“O‘zbekiston bibliya jamiyati. Muqaddas kitobni tarjima qilish intituti”, 2020. – B. 1852. (Luqo Injili qismi. – B. 16.)

³⁰ Rim katolik monaxlar ta’limoti tarafdorlari



haqida quyidagi soʻz rivoyat qilingan: “Riboxoʻrlar bu dunyoda sharaflarini yoʻqotadilar, oʻlganlaridan keyin kafanlanishga haqli emaslar”.³¹

Islomdan avvalgi arablar jamiyatida

Islomdan oldingi davrda sudxoʻrlik juda keng tarqalgan boʻlib, ular buni oʻz daʼvolariga koʻra, katta daromadlardan biri deb hisoblaganlar, bu ularga katta miqdorda pul olib kelgan. Islomgacha boʻlgan davrda sudxoʻrlik – pul egasi oladigan daromadlardan biri hisoblanar va u oʻz birodariga zarar yetkazishni oʻylamasdi. Sudxoʻr qarzdordan u foyda koʻradimi, koʻrmaydimi, kambagʻal boʻladimi, yoʻqmi baribir har qanday yoʻl bilan boʻlsin pulini undirib olish payida boʻlgan. Muhimi, boshqalarni halokatiga olib kelsa ham, koʻp pul olgan. Bu faqat islomdan oldingi davrdagi xatti-harakatlarning xunukligi, odob-axloqining buzilishi, inson tabiatining oʻzgarishi tufaylidir.³²

Islomdan oldingi jaholiyat zamonida qarz berish koʻrinishidagi ribo juda rivojlangan boʻlgan. Jaholiyat zamonida kishi boshqasiga qarz bergan boʻlsa, qaytarish muddati kelganda haqdor qarzdorga: “qaytasanmi yoki ziyoda qilamizmi?” der edi. Agar qarzni vaqtda toʻlamasa, qarzga muddat uzayishi evaziga foiz qoʻshilar edi. Shu tarzda koʻpayib ketaverar edi. Qurʼonda ham aynan uning katta gunoh ekanligi bayon qilingan. Shuning uchun ham uni “ribal Qurʼan”, yaʼni Qurʼonda zikr qilingan ribo yoki “ribal jahiliya”, yaʼni jaholiyat zamonasidagi ribo deyilgan.³³

Shuningdek riboning savdodagi koʻrinishi ham boʻlgan. Masalan, arablar nisabat past navdagi xurmoning koʻprogʻini boshqa sifatli navdagi xurmoning kamrogʻiga almashtirish orqali savdo qilishgan. Shu kabi oʻsha davrda bugʻdoy, arpa, tuz, tilla va kumush kabilar oʻrtasida ham ayriboshlash savdolari boʻlgan. Islom dini kelganidan soʻng Paygʻambar alayhissalom sanalgan oltita narsani³⁴ bir jinsdakisini oʻzaro ayriboshlashda

³¹ <https://almuslimamuaser.org/>. Doktor Mahmud Orif Vahba. نظريات الفائدة (الربا) في الفكر الاقتصادي (Iqtisod fikrida foyda nazariyalari). 01.09.1980.

³² <http://www.al-eman.net>. Dr. Said ibn Ali ibn Vahf al-Qahtoni. الربا أضراره وآثاره في ضوء الكتاب والسنة (Sudxoʻrlik, uning zarari va oqibatlarini Qurʼon va Sunnat nuqtai nazaridan).

³³ Abdulmannon Abdulloh. Tijorat va ishlab chiqarish haqida tasavvur. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2021. – B. 60.

³⁴ Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. Hadis va Hayot. – Toshkent: Sharq, 2008. – J. 11. – B. 143.



tengma-teng, qo'lma-qo'l qilish orqali savdo qilishlarini aks holda ribo bo'lib qolishini bayon qilib berganlar.

Islomiy manbalarda esa ribo (sudxo'rlik) kitob, sunnat va ijmo bilan harom qilinganligi keltirilgan. Qur'oni Karimdan riboning haromligiga dalil:

“Riboni yeydiganlar (qiyomat kuni qabrlaridan) faqat shayton urib, jinni bo'lgan kishidek dovdirab turarlar. Buning sababi ularning: “tijorat (savdo-sotiq) ham ribo (sudxo'rlik)ning xuddi o'zi” deganlari uchundir. Holbuki, Alloh tijoratni halol, sudxo'rlikni harom qilgan. Kim Rabbidan mav'iza (nasihat) kelganda (sudxo'rlikdan) to'xtasa, avvalgi o'tgani o'ziga va uning ishi Allohning O'ziga havola. Kim yana (sudxo'rlikka) qaytsa, o'shalar do'zax egalaridir va ular unda abadiy qolurlar.”³⁵

Hadisi shariflarda Abu Hurayra roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda Nabiyy sollallohu alayhi va sallam aytdilar: **“Yetti halok qiluvchi narsadan saqlanglar”**. Aytdilar: **“Ey Rosululloh sollollohu alayhi vasallam ular qanday narsalar”**. Aytdilar: **“Allohga shirk keltirish, sehrGARlik, Alloh harom qilgan jonni o'ldirish, ribo yeyish, yetimning molini yeyish, urush kuni orqa o'girilib qochish va pokiza, afifa mo'minalarga tuhmat qilish”**.³⁶

Shuningdek Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu aytdilar: **“Rosululloh sollallohu alayhi vasallam riboxo'rni, uning yediruvchisini, kotibini va ikki shohidini la'natladilar va ular barobardirlar”, dedilar**”.³⁷

Ummat riboni asli haromligiga ijmo' qilgan.³⁸ U yetti halokatga olib boruvchi gunohi kabiralardan biri. Alloh taolo O'z kitobida ribo yeyuvchidan boshqa gunohlarga urush e'lon³⁹ qilmagan. Riboni halol sanagan dinda zaruratligi ma'lum bo'lgan narsani

³⁵ Shayx Usmonxon Temurxon o'g'li Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. – Anqara: Turkiye diyanet vakfi, 2021. – B. 46. Baqara surasi, 275-oyat.

³⁶ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim al-Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih. – Karachi: Al Bushro, 2019. – J. 2. – B. 10. 2766-hadis.

³⁷ Imom Abu Husayn Muslim ibn al-Hajjoj. Sahihi Muslim. – Riyoz: Bayt ul afkar al duvaliya, 1998. – B. 651. 1598-hadis. // Abulhasan Nuriddin Muhammad ibn Abdulhodiy Sindiy. Hoshiyatun Musnad al-imam Ahmad ibn Hanbal. – J. 3. – B. 303. 1988-hadis.

³⁸ Al-Mavsu'a al-fiqhiyya. – Quvayt: Vizora al-avqof va-sh-shu'un al-islomiyya, 1983. – J. 22. – B. 53.

³⁹ Baqara surasi, 278-279 oyatlar.



inkor qilgani uchun dinda chiqadi, tavba qilishi lozim. Halol demasdan ribo bilan shug‘ullangan kishi fosiq hisoblanadi. Bu yetti halokatga olib boruvchi gunohi kabiralardan birini qilgan bilan teng. Bundan qattiq saqlanish zarur.

Alloh taolo riboga olib boruvchi yo‘llardan ham qaytargan. Chunki haromga olib boruvchi yo‘l ham haromdir. Haromga vasila bo‘lgan narsa ham haromdir.

Ribo insonlarning molini evazsiz – o‘rniga hech narsa bermasdan olishga sabab bo‘ladi. Holbuki, musulmon kishi molini hojati tushganda ishlatadi va unga tajovvuz qilishga biror kimsaning haqqi yo‘q. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Musulmon kimsa molining haromligi qonining haromligi kabidir”**, dedilar.⁴⁰

Riboning uch jihatdan: nafsiy, ijtimoiy va iqtisodiy zarari bordir.

Nafsiy zarari shundan iboratki – sudxo‘r insonning qalbida o‘zini ortiq darajada yaxshi ko‘rish, narsaning yaxshisini o‘zigagina ravo ko‘rish, uni faqatgina o‘zining manfaatigina xizmat qiladigan kabi razil sifatlar paydo bo‘ladi. Bu bilan unda boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rish, ilinish yo‘q bo‘ladi.

Ijtimoiy jihatdan zarari esa – jamiyat kishilarining orasida adovatning paydo bo‘lishi, insonlik va ijtimoiy aloqalarini parokanda bo‘lishiga olib boradi. Shuningdek, kishilar qalbida mehr shavqat va o‘zaro yordamning o‘rniga hasad urchidi.

Iqtisodiy jihatdan zarari – bu ochiq-oydindir. Chunki sudxo‘rlar mavjud ekan jamiyatda ikki tabaqa yuzaga keladi. Birinchisi, ne‘matga burkangan, boshqalarning peshona teri bilan foydalanadigan tabaqa. Ikkinchisi, muhtojlik bilan hayot kechiradigan yo‘qchilikka giriftor bo‘lgan tabaqadir. Shu sababli ikki tabaqa o‘rtasida kurash yuzaga keladi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, sudxo‘rlik bor joyda baraka ko‘tariladi, u avj olgan har qanday jamiyat parokandalikka mahkumdir. Buni o‘z vaqtida anglagan xalqlar vaqtida undan uzoqlashish qattiq harakat qilgan, unga imkon bergan xalqlarda esa

⁴⁰ Shuayb Arnaut. Al-Mavsu‘a al-hadisiyya: Musnad imom Ahmad ibn Hanbal. – Bayrut: Muassastu risola, 1993. – J. 7. – B. 296. 4262-hadis.



o‘zaro ichki nizolar avj olib boravergan. Alloh taoloning sudxo‘rlikdan qaytarishida nafaqat insonning o‘ziga, balki jamiyatga ham ulkan foyda bor ekanining hikmati ko‘rinadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Shayx Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiy. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasini. Turkiye diyanet vakfi. Anqara. 2021.
2. Doktor Vahba az-Zuhayliy. Fiqh al islamiy va adillatuhu. Dor al fikr. Damashq 2006.
3. Muhammad Taqiy Usmaniy. Buhus fii qozdoya fiqhiyya mua`siro, 1-juz. Damashq: Dar al qalam. 2020.
4. Doktor Vahba az-Zuhayliy. Al-Muamolat al-maliyyat al-muosiro. Dor al-fikr al-muasir. Bayrut 2007.
5. Vaqflar va islomiy ishlar vazirligi. “Al mavsu’a al fiqhiyya”. – Kuvayt: 2002. – J. 22 va 41.
6. Mahmud Orif Vahba. Nazariyot al-foida fi-l-fikr al-iqtisodiy. // Al-muslim al-muosir. 23 son. Bayrut 1980.
7. Abdulmannon Abdulloh. Tijorat va ishlab chiqarish haqida tasavvur. “HILOL-NASHR”. Toshkent. 2021.
8. Botirxo‘ja Jo‘rayev. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2014.
9. Fatvo.uz telegram kanali
10. Fiqh.uz